


POLAND

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE**

**SCIENTIFIC ASPECTS
AND TRENDS IN
THE FIELD OF
SCIENTIFIC RESEARCH**

 **28 FEBRURY
2024 YEAR**

POLAND, WARSAW



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH

International scientific-online conference

Part 18

February 28th

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

WARSAW 2024



SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH: a collection scientific works of the International scientific online conference (28thFebruary, 2024) – Poland, Warsaw : "CESS", 2024. Part 18– p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia
Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, o'zbek, polish, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference "**SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH**". Which took place in Warsaw on February 28, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

TABLE OF CONTENTS

Рўзиматова Севарахон Эркиновна <i>ФАРФОНА ВИЛОЯТИ СУФОРИЛАДИГАН ЎТЛОҚИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ ХОЗИРГИ МЕЛИОРАТИВ ХОЛАТИНИ ТАВСИФИ.</i>	7
Қобилов Бекзод Ўктам ўғли <i>КОРХОНАЛАРИНИНГ МЕҲНАТ ПОТЕНЦИАЛИНИ ХОЛИСОНА БАҲОЛАШ ВА ПРОГНОЗЛАШ - ИЖТИМОЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ</i>	11
Alimardonov Shokhrukh Erkin o'g'li <i>ANALYSIS OF GRADIENT DECREASE ALGORITHMS</i>	16
Shonazarov Asadbek Xushnud o'g'li Samandarova Farangiz Aybek qizi. <i>YO'L CHEKKALARIDAGI YO'L BELGILARI ,REKLAMALARNI AKS ETTIRUVCHI PESHTAXTALAR,MANITORLAR YO'LOVCHI UCHUN QANDAYIN AHAMIYATLI.</i>	21
Mamirov Ma'rufjon Yoriqul o'g'li Yuldashev Jamshidbek Baxtiyarovich Rajapboyev Anvarbek Xosilbek o'g'li <i>IQTISODIYOT RIVOJIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI</i>	24
Adizov Shuhrat Bafoyevich Hojiqulova Mahfuza Olimjon qizi Ergasheva Sayliya Erkin qizi Salimov Shahzod Odiljon o'g'li <i>SHAXSIY TOMORQA VA DEHQON XO'JALIKLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH</i>	27
Fayzullaeva Feruzaxon Sayfiddin qizi Elmuratova Nafisa Xajibaevna <i>TIL O'RGANISH KALITI</i>	32
Nurmatova Durdona Shuxrat qizi <i>THE ROLE OF LINGUISTIC ROUTINES IN SOCIAL RELATIONSHIPS</i>	35
Abdullayeva Ziyodaxon Husniddin qizi S. Sultanxodjayeva <i>FORS TILIDA "SEVGI", "MUHABBAT"NI IFODALOVCHI</i>	38



<i>LEKSEMALAR.</i>	
Aslanova Dilnoza Fatilloyevna	41
Halimova Nafisa Murodovna <i>“IQTISODCHILAR UCHUN CHET TILINI BILISHNING AHAMIYATI”</i>	
Tirkasheva Sitora Asilovna	45
<i>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.</i>	
Jo’raqulova Aziza Xamidovna	47
<i>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYACHILARNING KASBIY TAYYORGARLIGINING AXAMIYATI.</i>	
Toshpo’latova Go’zal Sobir qizi	50
<i>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O’RGATISHNING AFZALLIKLARI.</i>	
Jo’rayeva Go’zal Tirkash qizi	52
<i>TALAFFUZIDA NUQSONI BO’LGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KOREKSION ISHLAR MAZMUNI.</i>	
Julboyeva Muhayyo Salimovna	55
<i>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLA TARAQQIYOTINING UMUMIY XUSUSIYATLARI.</i>	
Malikabonu Mamajonova Yorqinjon qizi	58
<i>LANGUAGE AND CULTURE IN ENGLISH CLASSROOMS</i>	
Umidov Azizjon Rahmatjon o’g’li	61
<i>RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA</i>	
Abrayeva Shahnoza Esonovna	66
Nazarov O’ktam Usmon o’g’li <i>QADIMGI RIM VA YUNONISTONDA DAVOLASH USULLARI LOTIN VA YUNON TILLARI MISOLIDA</i>	
Abrayeva Shahnoza Esonovna	71
Hikmatov Baxtiyor Obidjon o’g’li <i>TIBBIYOTDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR</i>	
Abrayeva Shahnoza Esonovna	74
A’zamov Davronbek Salim o’g’li <i>IBN SINO YEVROPA OLIMLARI TALQINIDA</i>	
Abrayeva Shahnoza Esonovna	78

Bahodirov Baxtiyor Jamshidovich <i>TIBBIYOT SOHASIGA OID TERMINLARNING QO'LLANILISH IMKONİYATLARI, ULARNING TARKIBIY TUZILISHI HAMDA SEMANTIK XUSUSIYATLARI</i>	
Alisher Sidikov Uktamjonovich <i>INCORPORATING GAMES IN TEACHING ENGLISH IN PUBLIC SCHOOLS OF UZBEKISTAN</i>	81
Ma'rufjon Raximov <i>RADIKAL TOIFA: SOXTA SALAFIYLAR TAHDIDI.</i>	85
Ermatova Mehriniso Bekmurodovna <i>THE IMPORTANCE OF PROVERBS IN EXPLAINING NATIONAL VALUES TO PRESCHOOL CHILDREN</i>	93
Mo'minova Shohida Izzatillayevna Abdukarimova Araylim Muxash qizi <i>MAMLAKATIMIZDA DUAL TA'LIM TIZIMINI QO'LLASHNING MOHIYATI</i>	97
Joldashova Go'zal O'tkir qizi Ayxo'jayeva Muhayyo Turebayevna <i>PROFESSIONAL TA'LIMNI ISLOH QILISH MASALALARI</i>	100
Jumaev Akbarjon Sayfullaevich Raximboyev Sherzodjon Ikrom o'g'li <i>THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE BEARING BODY IN INCREASING THE LIFETIME OF TECHNOLOGICAL MACHINERY MECHANISMS</i>	104

IBN SINO YEVROPA OLIMLARI TALQINIDA

Abrayeva Shahnoza Esonovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasining o'qituvchisi

A'zamov Davronbek Salim o'g'li

TTA talabasi

davronbekazamov605@gmail.com

Annotatsiya *Bu maqolada Ibn Sinoning qisqacha hayoti, asarlari, chet el olimlarining fikr mulohazalari va olimning Yevropada tutgan o'rnini ko'rib chiqamiz. Maqola asosan Yevropa olimlarining fikrlariga boyitilgan va shu bilan birga olimning tibbiyotdagi o'rniga ham alohida to'xtalib o'tilgan. Ayniqsa tibbiyotga oid asarlari biz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Maqola, tibbiyot, olim, Yevropa*

Аннотация *В этой статье мы рассмотрим краткую жизнь Ибн Синая, его труды, мнения зарубежных ученых и роль ученого в Европе. Статья обогащалась в основном мнениями европейских ученых, и в то же время прерывалась отдельно на месте ученого в медицине. Особенно большое значение для нас будут иметь его труды по медицине.*

Ключевые слова: *статья, медицина, ученый, Европа*

Annotation *In this article we will consider Ibn Sinai's brief life, his works, the opinions of foreign scholars and the role of a scientist in Europe. The article was enriched mainly on the opinions of European scientists, and at the same time interrupted separately in the scientist's place in medicine. Especially his works on medicine will be of great importance to us.*

Keywords: *Article, Medicine, Scientist, Europe*

Har bir xalq o'z tarixiga o'zi egalik qilishni istaydi, tabiiy. Eng muhimi, bu tarixni boshqalar ham bilishi va tan olishini xohlaydi. Hozir olis-yaqinimizdagi xalqlar o'zining kamtarin o'tmishidan "muhtasham tarix" yaratayotgan bir zamonda biz borini ham tadqiq va targ'ib orqali dunyo ahliga yetkaza olyapmizmi? Yoki xorij olimlari tariximiz haqida nimalar yozmoqda? Ularning mulohazalari xolismi, haqqoniyimi? Buni hozir ko'rib chiqamiz.

Xo'sh, Ibn Sino kim bo'lgan. Shifokorlar fikricha, u buyuk tabib bo'lgan. Matematiklar uni mashhur astronom va matematik deb biladi. Adabiyotshunoslar esa uning shoir va yozuvchi bo'lganini ta'kidlaydi. Bu hali hammasi emas. Uni geologlar geologiya, musiqachilar musiqa nazariyotchisi, faylasuflar esa buyuk donishmand sifatida biladi. Ularning hammasi haq. Xo'sh, u kim — abadiy darbadar, bosh vazir, vazir, qamoqqa tashlangan mahkum?

Buyuk olim ko'proq narsa qilishga uringan. Unga bosh vazirlik lavozimi taklif qilinganda, hukmdorga bir qancha islohotlar o'tkazish taklifini bergan. Birinchidan, u o'ta

kambag'allashib ketgan dehqonlarni soliqdan ozod qilish kerakligini taklif qilgan. Ikkinchidan, harbiy askarlar sonini ikki barobar kamaytirib, bo'sh qolgan askarlarni kanal qurilishiga jalb etish kerak bo'lgan. Uchinchidan, ilk madrasa (maktab) va shifo uylari (kasalxona/shifoxonalar) ni qurish kerak bo'lgan. Lekin bulardan hech qanday ish chiqmagan va Avitsenna shunchaki saroy amaldorlarining ko'ziga yomon ko'rinib qolgan. Uning yagona mashg'uloti, ishi edi. O'zining asosiy mehnat mahsuli "Tib qonunlari"ni o'limidan biroz avval tugallagan. Sakkiz yuz yildan ortiqroq vaqt o'tib, Lui Paster uning viruslar nafaqat suvda, balki havoda ham yashaydigan, ko'rinmas kasallik qo'zg'atuvchilari haqidagi fikrini tasdiqlaydi.

Nega vafotidan yuz yildan ortiq vaqt o'tgach, diniy mutaassiblar tomonidan uning falsafiy kitoblari yoqib yuborilgan? Bundan tashqari, bir necha yuz yildan keyin Yevropada kitob bosish qurilmasi yaratilgandan so'ng Injildan keyin darhol besh jildli katta "Tib qonunlari" nashr qilingan. Ularning muallifi esa Avitsenna edi. Musulmon kutubxonalarini uning asarlarini ehtiyotkorlik bilan saqlab, kam sonli kishilargagina ular bilan tanishish uchun ruxsat berilgan. Uning ko'plab asarlari haqida faqat mish-mishlar orqali xabardormiz. Xattotlar ibn Sinoning asarlarini sidqidildan ko'chirgan. Yevropaning turli davlatlarida mazkur asar kitob bosish mashinalarida ko'paytirilib, turli tillarga tarjima qilingan.

Umrining oxirgi yillarida ibn Sinoning sog'ligi ancha yomonlashgan. U qachondir oshqozon muammolari haqida asar yozgan bo'lsa, endi o'zi shu darddan aziyat chekardi. Olim shunchalik zaiflashganidan dori qabul qila olmay qolgandi. U o'ziga "Meni boshqarayotganning endi boshqarishga kuchi yo'q, shu sababdan davolanish ham foydasiz", degan ekan. Ibn Sino es-hushi joyida bo'lib vafot etgan, uning so'nggi so'zlari quyidagicha edi:

Qora changdan tortib, samoviy jismlargacha

So'z-u amal sirin o'rgandim.

Barcha hiyla-nayranglarni, barcha tugunlarni yechdim,

Ammo o'lim tugunini yecha olmadim.

• Uning sharafiga Karl Linney Akant oilasiga mansub o'simlikni Avitsenniya deb nomlaydi.

• Tojikistonda Avitsennaning sharafiga Tojikiston davlat meditsina universiteti hamda avvalroq "Lenin tog'i" nomi bilan ma'lum tog' cho'qqisi nomlangan.

• Dushanbe shahrida uning sharafiga maydon nomlanib, azarbayjonlik haykaltarosh Umar Eldarov tomonidan yasalgan olimning haykali o'rnatilgan.

• 2009 yil iyun oyida Eron hukumati tomonidan Venadagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining bo'limiga hozirda Vena xalqaro markazi Memorial maydonidan joy olgan Fors olimlari pavilonini tortiq etadi. Fors olimlari paviloni o'z ichiga to'rt mashhur olimlarni olgan: Avitsenna, Beruniy, Zokiriy Roziy (Reyz hamda Umar Xayyom).

• O'zbekistonning Afshona qishlog'ida Avitsenna muzeyi mavjud.

• 1990 yil Buxoroda Abu Ali ibn Sino sharafiga nomlangan meditsina instituti ochilgan.

• Rigadagi Gaylezers kasalxonasi majmuasi parkida 2006 yil Abu Ali ibn Sino haykali ochilgan. Jaloliddin Mirtojiev ishi.

- Rossiyalik astronom Lyudmila Ivanova Chernix tomonidan 1973 yil 26 sentyabrda ochilgan Avitsenna asteroidiga Ibn Sino nomi berilgan.
- Ibn Sino sharafiga Oydagi vulqon nomlangan.
- Kardiogrammlar va ko'krak bezlarining rentgen suratini avtomatik o'rganish uchun IBM tomonidan yaratilgan dastur Avitsenna nomini olgan.

Ibn Inoning asosiy meditsina asarlari

•“Tibbiyot fani qonuni” («Kitab al-Kanun fit-tibb») - ensiklopedik xarakterdagi asar bo'lib, unda qadimgi davr mediklarining ko'rsatmalari arab meditsinasining yutuqlari bilan o'zaro qayta ishlangan. “Qonun”da Ibn Sino kasalliklar allaqanday mayda bo'laklar oqibatida paydo bo'lishini ko'rsatgan. U birinchi bo'lib chechakning yuqumliligiga e'tibor qaratgan, vabo va o'latning farqini aniqlagan, moxo'v kasalligining boshqalardan farqini ko'rsatib, unga izoh bergan va boshqa bir qator kasalliklarni o'rganib chiqqan. “Tibbiyot fani qonuni”ning lotin tiliga o'girilgan ko'plab tarjimalari mavjud. “Qonun” besh qismdan iborat bo'lib, ikkisi dori vositalari va dorivorlarga hamda ularning tayyorlanish ta'rifiga bag'ishlangan. Kitobda keltirilgan 2600 dori vositalaridan 1400 tasining kelib chiqishi o'simlik ko'rinishidadir.

- “Tabobat haqida doston” («Urdjusa fit-tib»).
- “Tomir urushi haqida risola” («Risolayi nabziya»).
- “Sayohatchilar uchun tadbirlar” («Fi tadbir al-musofirin»).
- “Sirka-asal haqida risola” («Risola fi-s-sikandjubin») - turli tarkibga ega sirka va asalni tayyorlash va kasalliklarda iste'moli ta'riflangan.
- “Sachratqi haqida risola” («Risola fil-xindabo»).
- “Qon olishda qon tomirlar” («Risola fil-uruk al-mafsuda»).
- «Risola-yi judiya» - quloq, oshqozon, tish kasalliklari ta'rifi keltirilgan. Bundan tashqari, unda gigiyena muammolari keltirilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Axadova M. A. Ibn Sinoning “Bilimlar kitobi”ning arifmetik qismi. Ibn Sino “Bilimlar kitobi”ning geometrik qismi // Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy eslatmalari. - 1964. - 12-son.
2. Brentjes B., Brentjes S. Ibn Sino (Avitsenna) / Trans. u bilan. P. M. Komishanchenko. - Kiev: KSU nashriyoti, 1984. - 88 p.: kasal.
3. Dzhibladze G. N. Avitsena tizimlari: Abu Ali Ibn Sino. Ekzoterik insho. (Ba'zi umumlashmalar va materiallar). - Tbilisi, 1986 yil.
4. Dinorshoyev M. Ibn Sino tabiat falsafasi. - Dushanbe, 1985 yil.
5. Zavadovskiy Yu. N. Abu Ali Ibn Sino: Hayot va ijod. - Dushanbe, 1980 yil.
6. Esonovna, A. S. (2023). LOTIN VA YUNON TILLARINING TIBBIYOT TERMINOLOGIYASIDAGI O'RNI.
7. Abrayeva, S. E., Esanov, U. J., Saydullayeva, M. A., & Shirinkulova, S. M. (2022). Linguistic Features of Latin and Greek Synonymous Morphemes in the Lexical System of the French Language (Based on Medical Texts).



8. Shahnoza, A. (2022). ФРАНЦУЗ ТИЛИ ТИББИЙ ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА СТАТИСТИК-КОМБИНАТОР МЕТОДЛАРНИНГ ИШЛАТИШИ.

9. Абраева, Ш. Э. (2023). ЛОТИН ВА ЮНОН МОРФЕМАЛАРИНИНГ ТИББИЁТ МАТНЛАРИДА ТАҚСИМЛАНИШИ ВА ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Scientific Impulse*, 1(6), 1255-1258.